

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI,
SAMARQAND VILOYATI QO'SHRABOT TUMANI,
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

**“Ergash Jumanbulbul og’lining ijodi va
Qorg’on dostonchilik maktabi adabiy merosining
Yangi O‘zbekiston ma’naviy-madaniy
taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida xalqaro
ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**

Qo'shrabot-2024

turadi. Yana bir xususiyat ko'zga tashlanadiki, Chambilbeldan kelganlarga Xunxorshoh kishilari "o'zbek" deb murojaat qilishadi.

Xorazmdagi qo'lyozmalarda «o'zbek» etnonimi umuman qo'llanilmaydi. Bu etnonimning dostonlarda ishlatilishi doston matnlarini o'zbeklarning qipchoq toifasiga aloqador baxshilardan yozib olinganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dalli. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent, "Fan", 1962, 196-bet.
2. 1911 yilgi Qozon toshbosmasi. 186-bet.
3. Mirzaev T. Dostonlar zubdasi // "Go'ro'g'li" dostonlari. To'rt jildlik. 1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. - Toshkent, "Yozuvchi", 1996, 8-bet.
4. Xorazm dostonlari. Go'ro'g'li. Nashrga tayyorlovchi Ro'zimboev S. Urganch - 2004. "Xorazm" nashriyoti. 183-bet.
5. Ro'zimboev S. Xorazm dostonlarining spesifikasi, tipologiyasi va poetikasi. Filol. fanlari dok. diss. - Toshkent, 1990, 210-bet.

*Abdumurod TILAVOV,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshohkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti.*

ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI DOSTONLARIDA OT OBRAZINING TARIXIY ILDIZLARI VA BADIY TALQINI

Annotatsiya. Otning o'zbek xalqi hayotida tutgan o'rni beqiyos. Ayniqsa, ot asosiy ulov vositasi bo'lgan o'tgan asrlarda uning bahosi yanada ortgan. Otning O'zbekiston tuprog'ida juda qadim zamonlardan qo'lga o'rgatilib, undan keng foydalanganligini arxeologik va etnografik adabiyotlar tasdiqlaydi.

Ot obrazi baxshining badiiy mahoratini ko'rsatuvchi, shuningdek, uning chuqur bilim va tafakkur egasi ekanini namoyon etuvchi obrazlardan biridar. Xalq dostonlarida tasvirlangan jangovar otlarga xos xususiyatlar sifatida ularning tabiiy otlar orasidagi eng mukammali, ayni paytda mifologik va totemistik e'tiqodiy tasavvurlarda ifodalangan ot xususiyatlariga ham ega ekanligida ko'rinmoqda. Shu jihatdan dostonlardagi jangovar otlar chinakam tulpor bo'lishlari uchun bevosita yoki bilvosita suv otlari hamda samoviy otlarga bog'liq bo'lishligi shart deb anglangan.

Mazkur maqolada Ergash shoir kuylagan dostonlardagi ot obraziga xos mifik belgilar, ularning tarixiy asoslari hamda baxshi tomonidan tasvirlangan badiiy talqini xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ergash Jumanbulbul o'g'li, ot obrazi, tarix, ot parisi, doston, turkiy folklor.

Аннотация. Роль лошади в жизни узбекского народа бесподобна. Особенно в прошлые столетия, когда основным средством передвижения была лошадь, ее значение еще больше возросло. Археологическая и этнографическая литература подтверждает, что лошадь приручалась и широко использовалась на земле Узбекистана с древних времен.

Изображение лошади – один из образов, показывающий художественное мастерство художника, а также его глубокие знания и мышление. По характеристикам боевых коней, описанных в народных эпосах, видно, что они являются наиболее совершенными среди природных лошадей и в то же время имеют и характеристики лошадей, выраженные в мифологических и тотемистических верованиях. В связи с этим подразумевалось, что боевые кони в былинах должны находиться в прямой или косвенной зависимости от водных коней и небесных коней, чтобы быть по-настоящему стервятниками.

В данной статье говорится о мифических персонажах коня в былинах, воспетых поэтом Эргашем, их исторической основе и художественной интерпретации, описанной Бахши.

Ключевые слова: Эргаш Джуманбулбул, образ коня, история, конная фея, эпос, тюркский фольклор.

Annotation. The role of the horse in the life of the Uzbek people is incomparable. Especially in past centuries, when the horse was the main means of transportation, its importance increased even more. Archaeological and ethnographic literature confirms that the horse has been domesticated and widely used on the soil of Uzbekistan since ancient times.

The image of a horse is one of the images that shows the artistic skill of the artist, as well as his deep knowledge and thinking. According to the characteristics of war horses described in folk epics, it is clear that they are the most perfect among natural horses and at the same time have the characteristics of horses expressed in mythological and totemistic beliefs. In this regard, it was implied that the war horses in the epics must be directly or indirectly dependent on the water horses and heavenly horses in order to be truly vultures.

This article talks about the mythical horse characters in epics sung by the poet Ergash, their historical basis and artistic interpretation described by Bakhshi.

Key words: Ergash Jumanbulbul, image of a horse, history, horse fairy, epic, Turkish folklore.

O'zbek xalqining ot bilan bog'liq e'tiqodiy, hayotiy va badiiy-estetik qarashlarini xalq dostonlarida keng kuylangan ot obrazi yanada mukammalroq tasavvur etish imkonini yaratadi.

“Dostonlarda ot juda muhim o‘rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi, qahramonga katta yordam beradi. Qahramon otga ega bo‘lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli qo‘ldoshi va yaqin do‘stidir”.

Biz quyida Ergash Jumanbulbul kuylagan dostonlardagi ot obrazining qadim ildizlari va badiiy talqini haqida so‘z yuritamiz.

Buyuk sarkarda Xolid ibn Validning sadoqatli oti haqidagi hikoya ham xarakterli. Rivoyat qilinishicha, Xolid ibn Valid vafot etganda, uning g‘azotlarda

doim minib yurgan oti qabr boshida ko'zidan yosh to'kadi. Uzoq muddat otni qabr boshidan olib ketisha olmaydi...

Folklorshunos Fatxi Ko'zler "Ot sevgisi" maqolasida bunday yozadi: "Agar bir zumgina otning tilga kirishini faraz qilsak, u jonivorning mana bunday gapirishi muhaqqaqdir: "Ey jasur turk millati! Agar dunyo yuzida siz bo'lmaganingizda, men er yuziga ot bo'lib kelganimga ming pushaymon er edim. Meni hayvonlar olamidan chiqarib olib, menga shunchalar e'tibor berib yoningizdan joy berganingizni hech qachon unutolmayman...". Haqiqatan ham turkiylarda ot sevgisi shunchalik chuqurlashib ketganki, ot deganda turk va turk deganda ot esga olinmasligi mumkin emas".

Qahramonlik tipidagi dostonlarimizni o'qish jarayonida ajdodlarimizning otga bo'lgan ana shu sevgisi, bog'liqligi xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topganiga guvoh bo'lamiz.

Xalq orasida suv otlari "duldul" yoki "tulpor" deyiladi. Dostonlarimizda, jumladan, Ergash shoir ijro etgan "Qunduz bilan Yulduz"da ham ular ayni sifatlar bilan tilga olinadi:

"Go'ro'g'lining baytaliga ko'lda chopgan ot duldul edi. Shu dulduldan bu toy bo'lgan edi". "Chovkar cho'ntoq (yoli va dumi kalta ot - A.T.) suvdan chiqqan tulpor edi..."

Qahramon otining suv bilan bog'langanligi detalining nafaqat o'zbek, balki boshqa turkiy xalqlar dostonlarida ham uchrashi xarakterlidir. Turk qavmi sanalgan mukrilarning mashhur "Koch Osman" (Bahodir Usmon) dostonida qahramonlardan biri Mir Sayfiddin Bekka bir dengiz ayg'iri armug'on etiladi: "Ey Sulton!.. bir qir ayg'ir keltirishibdi; otasi dengiz ayg'iridir. Qanotlari ham bor. Uning uzangisiga oyoq qo'yib ustiga minishga sengina haqlisan".

"Dada Qo'rquut kitobi"da ham ayni motivga duch kelamiz. "Bonsi Bayrak" dostonida vazirganlar Bonsi Bayrakka olgan hadyalar orasida bir dengiz toyi bo'lgan bo'z ayg'ir ham bor.

Navoiy viloyati Nurota tumani Jo'sh qishlog'i yaqinidagi Fangat deb yuritiluvchi joyda ham ko'l ayg'iri bilan bog'liq bir afsona mavjud. Rivoyat

qilinishicha, ellik metr tepalikdagi ko'lda bir qora rangli suv ayg'iri yashaydi. Baytallar u erda o'tlab yurganda, ma'lum vaqtda bu ayg'ir suvdan chiqib baytallarga yuguradi. Bu ayg'irdan tug'ilgan otlar "olmosday tezkor" bo'ladi, deyishadi.

Folklorshunos Sh.Turdimov yozib olgan - Pozilmon ko'lidan chiqqan suv ayg'iri haqidagi afsona mazmuni ham yuqoridagi afsonalarga juda o'xshab ketadi.

Boshqirdistonning Burzyan tumanidagi Shulken ko'lini "Ulkichiqkan" deb ham aytishadi, ya'ni tub joy aholisi bu ko'ldan ayg'irlar chiqqanligiga ishonadi.

Jangovar otning ajdodlarimiz mifik dunyoqarashini ifodalashdagi funksiyasini dostonlardagi "ot - suv", "ot - ko'k, "ot - quyosh" motivlarining tahlilida ko'rib o'tgan edik. Inchunun, bu obrazning tinglovchi kayfiyatini ko'taruvchi, uni doston ruhiga yanada yaqinlashtiruvchi, doston badiiyatini oshiruvchi estetik hodisa sifatidagi ahamiyatini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Fikrimizga Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan "Dalli" dostonidagi birgina lavha misolida oydinlik kiritmoqchimiz.

Dallini olib ketish chorasini qidirayotgan Hasanxon G'irko'kka qarab:

Bugun jondan kechib o'yna, tulporim,
Sen ko'nglingni ochib o'yna, tulporim,
Go sakrab, go sapchib o'yna, tulporim,
Qushday bo'lib uchib o'yna, tulporim,
O'ynagin, o'zbekning oti,
Asli turkman xonazoti/ -

deb murojaat qilgach, ot pishiq g'ishtning ustida goh "adabli suluv qizday", goh alqar, goh kiyik, goh ayiq polvon, goh taka polvon, goh quyon, goh yo'lbars, goh kaklik bo'lib o'yin ko'rsatadi va barchaning diqqatini o'ziga jalb etadi. Hatto Dallining quyidagi tahsin va e'tirofiga sazovor bo'ladi:

Qoyil bo'ldim, endi senga,
Balli, o'zbak, o'lma o'zbak,
Ko'rgan odam qoldi tongga.
Qoyil bo'ldim men otingga,
Balli sening sinbatingga,

VX

O'lma, o'zbak, o'lma o'zbak,

Yetgin murod-maqsadingga.

Pirovardida Hasanxon otning o'yinidan "mast bo'lib", "aqli shoshib" unga suv uzatgan Dallini olib qochishga muyassar bo'ladi.

Baxshi G'irotning "o'yini"ni shunday quyma misralarda tasvirlab beradiki, go'yo tinglovchi ko'z o'ngida jonli sahna paydo bo'ladi.

"G'irko'k shunday ot edi, odamdan esli, farosatli edi. G'irotni ham Dallining qasdida edi. Shu safar Dalli uchun kelganini o'zi bilar edi. Shu sababdan jonivor G'irotni yo'lbarsday bo'lib, yollarini tikki qilib, o'zini chog'lab, har tarafga ang'ishlab, goh odimini juft qilib, goh egri tashlab, goh keyiniga qaytib ketib, goh yonboshlab, goh sakrab, goh imtilib, goh sust bo'lib o'zini mayin tashlab, goh o'qrayib, ko'zlarini yashnatib, har turli yurish, qiliqlarni boshlab turibdi".

Dostonlarda ot egarlash epizodiga keng o'rin berilishining sabablari nima ekan? Bu epizodning doston uchun ahamiyatli jihati bormi?

Baxshi avvalo, ot egasining (agar uni sayis emas, qahramonning o'zi egarlayotgan bo'lsa) otni safar yo jangga tayyorlashni nechog'li mukammal bilishligini ko'rsatadi. Demakki, bu epizod bahodirning sinchkovlik, uddaburonlik kabi xislatlarini to'ldirishda xizmat qiladi. Bundan tashqari, ot va qahramon safari odatdagi safarlardan emasligiga, ularni yo'lda qahramonliklar, ajoyib voqyealar kutayotganligiga ishora qilinadi, chunonchi tinglovchining e'tibori kelgusi voqyea-hodisalarga tortiladi:

Olis yurtdan oshgan tortar xo'rlikni,

Bedov mingan yigit qilar erlikni.

Ot beliga qo'ya berdi bek Ravshan,

Toza ipak, mayin, qalin terlikni.

Ot egarlash epizodi bilan bog'liq yana bir muhim jihat bor. Dostonlardan keltirilgan parchalarga diqqat qilinsa, qahramon oti anjomlarining aksariyati qimmatbaho oltin yoki kumushdan yasatilgan yo bezatilgan:

Uzangisi uyma oltin,

Quyushqoni quyma oltin,

Yuganining sopi oltin,
Egarining qoshi oltin.

(“Ravshan” dostonidan)

Kuzatishlarimiz davomida kekxa chavandozlar orasida va umuman ajdodlarimizda dongdor, “xislatli” otlarning parisi borligi ishonchi mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Bunday otlar boshqa otlardan ko‘rkamligi va o‘ta aqlliligi bilan ham ajralib turadi.

Ba’zi turkiy qavmlarda ot parisining hayz ko‘rgan xotinlarga o‘ch bo‘lishi va endi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘g‘irlab ketishiga ishoniladi. Farzand ko‘rgan ayol kechasi qo‘riqlab chiqilmasa, jin, alvasti, shu bilan birga ot parisining ichkariga kirib ayolning o‘pkalarini qo‘porib olishidan xavfsirashadi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun qishloq qizlari ko‘zi yorigan ayolning uyida to‘planishib tonggacha xursandchilik qilishadi, qo‘shiq aytishadi.

Professor Abdulqodir Inon quyidagi ma’lumotni beradi: “Ko‘zi yorigan ayollarga o‘ch bo‘lgan bu yomon ruh Chin devoridan Rodoplar, Shimoliy Muz okeanidan Hindistongacha yoyilgan butun turkiy el va elatlarning folklor va ishonchlarida “Al-xotin”, “Albasti”, “Albis”, “Almis” kabi nomlar bilan tilga olinmoqda”.

Ot parisi haqida so‘ragan kishilarimiz, ot parisi ot bilan “o‘ynayotganida” ot erkalangansimon, kulgiga yaqin juda g‘alati ovoz chiqarishini aytishdi. O‘sha paytda ot tablasiga ovoz chiqarmay, dabdurustdan kirib, ot parisini ko‘rgan odam yo boy bo‘lishi, yo olamdan ko‘z yumishi, yoxud og‘ir xastalikka duchor bo‘lishiga ishoniladi. Shuning uchun otning tablasiga turli xil ovoz chiqarib yaqinlashish tavsiya qilinadi.

“Ravshan” dostonida ot parisidan keladigan zarar haqida tasavvurning ta’sirini sezish qiyin emas. Chunki baxshi, Ravshanbek otni egarlashga kelayotganida “nodonlik qilib bir baloga yo‘liqishi”dan andisha qiladi va Ravshanbekning otga yaqinlashishdan avval “turli-turli so‘ylaganini” ta’kidlaydi:

Savdo tushdi bek Ravshanning boshiga,
Yoqasi ho‘l ko‘zdan oqqan yoshiga.

Endi ko'ring bek Ravshanday polvonni,
G'ayrat bilan bordi otning qoshiga.
Endi qarang Ravshan nodon bolaga,
Qolmasin-da shu bola bir baloga.
Tomosha qing bek Ravshanday polvonni,
Yetaklab Jiironni chiqdi dalaga.
O'tar dunyo o'tarini o'yladi,
Yosh bachcha-de, turli-turli so'yladi.
Olib chiqib Jiironqushni dalaga,
Olib kelib, yakka mixga boyladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq baxshisining mahorati ot obrazining badiiy jihatdan tasvirlanishida ko'rinadi. Ot obrazi bilan aloqador kichik bir detalning ham baxshi tomonidan dostonga shunchaki kiritilmaganligiga amin bo'ldik.

- ot obrazi dostonidagi bosh qahramon bilan, aksar holatlarda yonma-yon keladi. Qahramon portreti qay yo'sinda chizib berilsa, baxshi otning qiyofasi - portretini namoyon etishda xuddi shunga o'xshash usullardan foydalanadi. Bu ot timsolining dostonidagi bag'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi dalillar sirasiga kiradi;

- dostonlardagi ot tarbiyasi bilan bog'liq lavhalarning jonli va hayotiy chiqqanligini baxshining mahorati, shu bilan birga ajdodlarimizning bu sohada boshqa xalqlarga o'rnak bo'lgan tajribaga egaligi haqidagi tarixiy haqiqatning og'zaki ijoddagi ifodasidir, deya baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Go'ro'g'lining tug'ilishi / Aytuvchi Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'ltan / Nashrga tayyorlovchi M.Murodov. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1967. - 328 b.
2. Dalli. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. - Toshkent: Fan, 1972. - 256 b.
3. Oskar Mann. Mindart der Murki Kirden. Berlin, 1909. 353 p.

4. Ravshan. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. - Toshkent, 1963. - B. 80.
5. Tarixda va bugun shomonizm. - Anqara, 1972. - B. 169.
6. Fathi X. Ko'zler. Xalq og'zaki ijodida milliyat nusurlari. - Anqara, 1980. - B. 122.
7. Qunduz bilan Yulduz. Doston. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. Nashrga tayyorlovchi H.Zarifov. - Toshkent, 1971. - B. 262.
8. Ergash Jumanbulbul o'g'li. Tarjimai hol. - Toshkent: Fan, 1975.
- Jurnallar:
9. Turdimov Sh. Suv otining tuyog'i // Maktabgacha ta'lim. - 1994. - №7,8,9. - B. 23.
10. Mireli Seyidov. "GIZYL dojshchunun soj-yetnik galeji haggında" // "Ulduz" jurnali. - Baku, 1980. - № 10. - B. 39.

*Manzura NARZIQULOVA,
filologiya fanlari nomzodi,*

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

ERGASH JUMANBULBUL O'G'LINING "KUNTUG'MISH" DOSTONI HAQIDA

Annotatsiya. Har bir doston variantining ijrosi va baxshi epik tafakkurining hosilasi o'laroq alohidaligi mavjud. Baxshining dostonga ijodiy yondoshuvi, badiiyati, epik ijrochining badihago'yligi, iqtidori, saviyasi aks etib turadi. "Kuntug'mish" dostoning ham o'zbek xalq baxshilarining ko'pchiligi kuylagan, biroq Ergash Jumanbulbul o'g'li repertuaridan yozib olingan variant o'zining orginal badiiyati va qiziqarli syujeti bilan ajralib turadi. Maqolada mana shu masala haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. doston, variant, qahramon, dostonchilik maktabi, baxshi.

Mas'ul muharrirlar:

Shomirza Turdimov,

filologiya fanlari doktori, professor

Qo'shrabot tumani ma'naviy-marifiy ishlar bo'icha hokim o'rinbosari

Xolbek Ko'bayev

**Қўшработ туман ҳокимининг ёшлар сиёсати, ижтимоий
ривожлантириш ва маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари**

Nashrga tayyorlovchi:

Yo'ldosh Rahmatov,

filologiya fanlari doktori (Dsc)

Dilrabo Igamuratova

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

Jabbor Eshonqulov,

filologiya fanlari doktori, professor

Elbek Jumanov

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)